

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA YOSHLARNING O'RNI

*Mirzailyosov Tohir Ilhom o‘g‘li*

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universitetiti  
Ijtimoiy fanlar fakulteti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi  
yo‘nalishi IV bosqich talabasi.*

*Tel: +998 91 011 34 03.  
tmirzailyosov@gmail.com.*

**Annottatsiya:** Mazkur maqola korrupsiya haqida va bunga qarshi kurashishda yoshlarning o‘rni qay darajada ekanligi haqida qisqacha izlanishlar olib borilgan.

**Kalit so‘zlar:** Korrupsiya, lobbizm, dediologizatsiya, antik, kandida, deriktiv.

**Abstract:** This article is a brief research on corruption and the role of youth in fighting it.

**Key words:** Corruption, lobbyism, dediologization, antique, candida, directive.

**Аннотация:** Данная статья представляет собой краткое исследование коррупции и роли молодежи в борьбе с ней.

**Ключевые слова:** Коррупция, лоббизм, дедиологизация, античность, кандида, дериктив.

### KIRISH

Dunyodagi global jarayonlarga e’tibor beradigan bo‘lsak ko‘p davlatlarni qiynab kelgan, ularni rivojlanishiga ma’lum bir ma’noda to‘siq bo‘lib kelayotgan, qoniga og‘u bo‘lib kirgan narsani ko‘rishimiz mumkin. Bu – korrupsiya.

Korrupsiya atamasini tahlil qiladigan bo‘lsak: “lotincha – corruptio” buzish, yo‘ldan og‘dirish, sotib olish degan ma’nolarni anglatadi. Mansabdor shaxslarning o‘zlariga ishonib topshirfgan hokimiyyat vakolatlaridan o‘z shaxsiy boyliklarini ortitish maqsadida foydalanish. Korrupsiya poraxo‘rlik, mansabni suiste’mol qilish va noqonuniy harakatlarni o‘z ichiga oladi. Hokimiyyat tepasida turga hukumat chirib-irib ketgandan so‘ng, boshqalari bu hukumatni ag‘darishi uchun kurashadilar, lekin kurashganda ham, korrupsiya va ekspluatatsiyaga xotima berish uchun kurashmaydilar. Bundan kelib chiqadiki korrpupsiyani yo‘qotish juda qiyin muommolardan biri bo‘lib kelmoqda. Korrupsiya turli shakllarga ega: Poraxo‘rlik, tovlamachilik, fribgarlik, mulkni

o‘zlashtirish, fitna, hokimiyatni suiste’mol qilish, xushomadgoylik, sovg‘a, qarindoshlik, homiylikdir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Korrupsiyaning tarixi antik davrlarga borib taqaladi. Qadimgi Yunoniston davlatida oddiy xalq vakillari oqsoqollarga va turli darajadagi amaldorlarga sovg‘a-salomlar berishgan. Bunday sovg‘a salomlarni olgan amaldor candida nomli oq rangli libosni kiyganlar. Kiyimlarining ranglari ham huddi ko‘ngillari, vijdonlari singari “oq” bo‘lgan. Qadimgi Misrda ham bu holat kuzatilgan .

Koruppsiya oyog‘iga bolta urush maqsadida yurtimizda ham bir qancha tadbirlar amlaga oshirilmoqda. Xususan, O‘RQ-419 soni 03.01.2017-yilda qabul qilingan “Koruppiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi” qonunini misol keltirishim mumkun[1:1]. Bu qonunda karruppiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari sifatida:

- Qonuniylik
- Fuqarolarning huquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi
- Tizimlik
- Davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi
- Koruppsiyanı oldini olishga doir chora-tadbirlarni ustuvorligi
- Javobgarlikning muqarrarligi singari prinsiplarni talqin qilinganligini ko‘rishimiz mumkin.

2020-yil 20-iyunda Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasida korupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish qo‘srimcha chora – tadbirlar to‘g‘risidagi farmoniga muvofiq Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzildi[2:1]. 2014-yilda esa O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga bir qator o‘zgarishlar kirdizildi. Shunga ko‘ra “Jamiyat nazorati” instituti tashkillashtirildi. Mazkur institutning maqsadi fuqarolar bilan mansabdor shaxslarning o‘rtasidagi masalalarga baho berib boradi. Bu yo‘sinda olib borilayotgan davlat siyosatimizda korupsiyaga qarshi kurash naqadar muhim ahamiyat kasb etayatganini ko‘rishimiz mumkin. Bunday say-harakarlar natijasi o‘laroq

O‘zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashda uzoq muddatli ijobiy dinamikani namoyish etuvchi 16 davlat qatoriga kiradi.

Ammo bu korrupsiya yo‘q bo‘lib qoladi degani emas buning uchun barcha insonlar birgalikda harakat olib borishimiz kerak. Barcha insonlar bu illatni naqadar mudhish ekanligini, boylik keltirsa ham buyurmasligini, o‘zлari aqliy anglab yetishlari lozim. Ijtimoiy ongni rivojlantirish orqali bu illatdan qutilishimiz mumkin. Bunda ta’lim tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asnoda bu sohada tarmoqli ravishda islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan 2020-yil 23-sentabrda Talim tog‘risida qonun qabul qilindi. Bunda ko‘ra O‘zbekiston Respublikasidagi barcha OTM.lar cretid-modul tizimiga o‘tishi masalasi, yoshlarni ta’limga qamrab olish va ularni intiliktual salohiyatini oshirish asosiy maqsad qilib olindi. Kelajak albatta yoshlarning qolida. Ular bugun vatanga sadoqat, holollik ruhida tarbiyalansa ertaga ham bu hislatlarni o‘zlariga asos qilib olib uchinchi renessansni tamal toshlarini qo‘yishda o‘z hissalarini qo‘shishadi.

Yurtimiz mustaqil bo‘lgach bozor iqtisodiyotiga shiddat bilan o‘ta boshladi. Bunday dediologizatsiya jarayonlarini tanlashdan boshqa iloj ham yo‘q edi, aslida. 70 yil davomida xalqimiz kommunizm g‘oyasi asosida yashashgan edi[3:83]. Bu g‘oyadan qutilish uchun biz xususiylashtirilgan jamiyatda o‘tishga majbur bo‘ldik. Bu esa ma’lum bir ma’noda kishilarining ongida moddiy hayot masalasini birinchi o‘ringa olib chiqib qo‘yanligini ko‘rishimiz mumkin. Jamiyatimizdagi ko‘plab insonlarda bu holat kuzatilyotganligi achinarli holat. Ular ma’lum bir ma’noda hayotning mazmunini yo‘qtib qo‘yishgandek.

Tarixdan korrupsiyaga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Ulardan yirik toifadagi korrupsiyaga misolni ko‘rib chiqamiz:

ENRON 1990-yilda prezidenti Karlos Andres Peresning ikkinchi davri mobaynida RECADI tanqid qilindi va tugatildi va yuqori hukumat amaldorlarining jinoyatlarini isbotlash imkonsiz edi[4:1].

Ushbu mashhur korrupsiya ishi 1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshlarida sodir bo‘lgan va shu paytgacha Amerikadagi eng yaxshi energiya kompaniyasi sifatida tanilgan. 1995-yilda Kennet Lay tomonidan asos solingan Enron o‘zini dunyodagi eng

yirik energiya tarqatuvchi sifatida joylashtirdi va yillik aylanmasi 100 milliard dollarni tashkil qildi[5:1].

1997-yilda Jeffri Skilling Enron prezidenti lavozimiga kelishi bilan kompaniya buxgalteriya muhandisligi qarzlarni, qarzlarni daromad sifatida kamuflyaj qilish, imtiyozlarni oshirish va majburiyatlarni aktivlarga aylantirish bo'yicha bir qator jarayonlarda aniqlandi, bu esa boshqaruv kengashini aldov ostida ushlab turdi. Direktiv.

2004-yilda Skillining maxfiy ma'lumotlar bilan ishslash, auditorlik tashkilotlari bilan fitna uyuştirish, Enron aktsiyalarini bankrot bo'lishidan oldin 60 million dollarga sotish va boshqa hiylanayranglarni o'z ichiga olgan 30 xil ayblov bilan aybdor deb topildi.

## **NATIJALAR**

Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o'tiladi. Korrupsiya bizning kunlargacha yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa ilatlar kabi, uni ham tag – tagi bilan yo'qotib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan g'arb davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo'lmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korruksianing oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Qur'oni karimda poraxo'rlik bevosita taqiqlanadi: "Bir – birlaringizning mollaringizni botli yo'l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang. Ko'rib turganingizdek korrupsiya deyarli barcha manbalarda qoralanadi.Har qanday jamiyat uchun ushbu jinoyatga qarshi kurashish dolzarb masalalardan biridir.2003-yil 9-dekabrdan BMTning korruksiyaga qarshi konvensiyasi imzolanganligi ham fikrimiz dalilidir.

## **XULOSA**

Korruptsiya shuqadar tub ildiz otib ketganki uni tessavur qilish qiyin. Yosh avlodni bunday g'ayriinsoniy illatlardan uzoq holda tutmoq zarur. Avvalo, hamma bunday targ'ibotni o'zida olib borishi kerak,o'zini isloq qilishi kerak. Keyin esa yoshlar ham shu

## International Conference on Education and Innovation

ruhda tarbiyalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi Zero: “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono, aqilli va albatta baxtli bo‘lishlari shart!” degan edi Islom Karimov[6:176]

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi, “<http://lex.uz>”.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun, 2017.
3. I.A.Karimov Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch: -T “Ma’naviyat nashriyoti”, 2008. 83-bet
4. <http://review.uz>
5. <http://tiame.uz>

I.A.Karimov Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch: -T “Ma’naviyat nashriyoti”, 2008. 176-bet

